


10. Ko'p xonali sonlar

Yondosh mavzu:
Qoraqalpog'iston
Respublikasi

Katta sonlar, xonalar



1. Sonlarni uchta guruhga bo'ling:

76, 894, 308, 38, 3, 8, 17, 72, 172, 225, 95, 5.

Bir xonali

Ikki xonali

Uch xonali



2. Uch xonali sonlarni ko'rsating. Har bir sonda nechta yuzlik, o'nlik va birlik bor? Nechta yuzlik va birlik bor? Nechta o'nlik va birlik bor?

28

293

11

4

2 000

107

325



3. Matnni o'qing.

Qoraqalpog'istonda aholi yashaydigan joylar 6 000 yildan avvalroq paydo bo'lgan. Hozir u yer 166 600 kvadrat kilometr maydonga ega yirik hudud hisoblanadi. Poytaxti – 325 100 nafar odam yashaydigan Nukus shahri. U aholisi soni ko'pligi bo'yicha mamlakatimizdagi beshinchi shahardir.

O'qish qiyin bo'lgan sonlarni ko'rsating. Bu sonlarda nechta raqam ishtirok etgan?

10. Ko'p xonali sonlar



Yozuvda sonning har bir raqami ma'lum bir o'rinni egallaydi. Bu o'rin xona deb ataladi. Qulaylik uchun ko'p xonali sonlar sinflarga – o'ngdan boshlab uchta raqamdan iborat guruhlar bo'linadi. Har bir sinfning o'z nomi bor: eng kichigi – birlar sinfi, keyingisi – minglar sinfi.

Minglar sinfi			Birlar sinfi		
Yuzlar	O'nlar	Birlar	Yuzlar	O'nlar	Birlar
2	5	8	1	6	9

Ikki yuz ellik sakkiz ming

Bir yuz oltmish to'qqiz



4. Yozilgan sonlarni o'qing. Ularda nechta raqam bor?

$\begin{array}{ c } \hline 968 \\ \hline \end{array}$ minglar	$\begin{array}{ c } \hline 372 \\ \hline \end{array}$ birlar	$\begin{array}{ c } \hline 103 \\ \hline \end{array}$ minglar	$\begin{array}{ c } \hline 210 \\ \hline \end{array}$ birlar	$\begin{array}{ c } \hline 542 \\ \hline \end{array}$ minglar	$\begin{array}{ c } \hline 207 \\ \hline \end{array}$ birlar
$\begin{array}{ c } \hline 177 \\ \hline \end{array}$ minglar	$\begin{array}{ c } \hline 264 \\ \hline \end{array}$ birlar	$\begin{array}{ c } \hline 95 \\ \hline \end{array}$ minglar	$\begin{array}{ c } \hline 161 \\ \hline \end{array}$ birlar	$\begin{array}{ c } \hline 3 \\ \hline \end{array}$ minglar	$\begin{array}{ c } \hline 581 \\ \hline \end{array}$ birlar



5. Quyidagi sonlarni yozing, ularda:

- a) 65 ta minglik 567 ta birlik;
- b) 380 ta minglik 607 ta birlik;
- d) 1 ta minglik 355 ta birlik;
- e) 70 ta minglik 400 ta birlik bo'lsin.



6. Tenglamalarni yeching.

- a) $20 \cdot x = 300 - 180$
- b) $a : 7 = 29 + 41$
- d) $210 : y = 145 - 75$
- e) $900 - t = 720 : 8$



7. Hisoblang.

$$9 \text{ m} - 1 \text{ m } 6 \text{ cm} - (5 \text{ m } 39 \text{ cm} + 24 \text{ dm } 5 \text{ cm})$$

10. Ko'p xonali sonlar



8. Nukusda I.V. Savitskiy nomidagi Davlat san'at muzeyi bor. U soat 9:00 da ochiladi va 17:00 da yopiladi. Muzey kuniga necha soat ishlaydi?



9. Muzeyda 47 ta qoraqalpoq rassomlari va ulardan ikki marta ko'p o'zbek rassomlarining asarlari to'plangan. Agar muzeyda jami 235 ta asar bo'lsa, rus rassomlarining nechta asari joy olgan?



10. Rasmlar ko'rgazmasiga bir nechta rassomlar 50 ta surat taqdim qilishdi. Har bir rassom hech bo'lmaganda bitta surat berdi va ular bergan suratlar soni bir xil emas. Bu guruhda ko'pi bilan nechta rassom bo'lishi mumkin?



11. Quyidagicha sonlarni yozing, ularda:

- a) 190 ta minglik 337 ta birlik;
- b) 200 ta minglik 500 ta birlik;
- d) 47 ta minglik 532 ta birlik;
- e) 129 ta minglik 936 birlik;
- f) 70 ta minglik 710 birlik;
- g) 9 ta minglik 104 ta birlik bo'lsin.



12. Misollarni yeching va zamonaviy qoraqalpoq adabiy tili asoschisi kimligini toping.

- A** $700 - 176 + 283$
- B** $16 \cdot 4 + 23 \cdot 8$
- D** $(673 - 594) \cdot 3$

- E** $543 + 207 - 615$
- R** $500 : 5 - 720 : 9$
- Q** $26 \cdot 5 + 14 \cdot 7$

248	135	20	237	807	228
-----	-----	----	-----	-----	-----